KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

## XXI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

# YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G‘OYA VA YECHIMLAR

**NOYABR, 2026**



**ISSN 3093-8791**

**ELEKTRON NASHR:**
https://konferensiyalar.com

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar.**
XXI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 2-jild, 21-son (12-noyabr, 2026-yil).– 134 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yaxatidan o‘tkazilgan.

**Elektron nashr**: https://konferensiyalar.com

**ISSN:** 3093-8791 (onlayn)

**Konferensiya tashkilotchisi:** “Scienceproblems Team” MChJ

**Konferensiya o‘tkazilgan sana:** 2026-yil, 9-noyabr

**Mas’ul muharrir:**
Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**
Mazkur to‘plamda “Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar” mavzusidagi XXI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta’lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o‘rin olgan bo‘lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag‘ishlangan.
Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta’lim o‘qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

**Barcha huquqlar himoyalangan.**
© Scienceproblems team, 2026-yil
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

# USMON AZIMNING POETIK ASARLARINI TURKUMLANISHI

**Turg‘unova Mahliyo Nuriddin qizi**
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi,
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti
”Ijtimoiy fanlar va axborot texnologiyalari”kafedrasi o‘qituvchisi
Email: mahliyot93@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0006-6419-730X

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek she’riyatining taniqli vakili Usmon Azim poetik asarlarini turkumlash masalasi adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi. Shoir she’riyatining mavzu ko‘lami, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, obrazlar tizimi hamda poetik tafakkurining o‘ziga xos jihatlari asosida asarlarni muayyan guruhlarga ajratish tamoyillari yoritiladi. Shuningdek, ijodkor lirikasida inson va tabiat munosabatlari, ruhiy kechinmalar, falsafiy mushohadalar, ijtimoiy hayot tasviri hamda ramziy-majoziy ifoda vositalarining o‘rni tahlil qilinadi. Usmon Azim poetik asarlarini turkumlash orqali shoir ijodining mazmuniy va badiiy yaxlitligini ochib berish, uning individual poetik uslubini belgilovchi xususiyatlarni aniqlash masalalariga e’tibor qaratiladi.

**Kalit so’zlar:** Usmon Azim, poetik asarlar, lirika, turkumlash, poetik tafakkur, badiiy obraz, obrazlar tizimi, ramz, poetik uslub, badiiy talqin.

# CLASSIFICATION OF USMON AZIM’S POETIC WORKS

**Turg‘unova Mahliyo Nuriddin qizi**
Researcher at Alisher Navo’i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature,
Lecturer at the Department of Social Sciences and Information Technologies,
Tashkent University of Economics and Technologies

**Annotation.** This article examines the classification of the poetic works of Usmon Azim, a prominent representative of Uzbek poetry, from the perspective of literary studies. It explores the principles of categorizing the poet’s works into specific groups based on the thematic scope, ideological and artistic features, system of imagery, and distinctive aspects of his poetic thinking. Furthermore, the article analyzes the role of human–nature relationships, emotional experiences, philosophical reflections, depictions of social life, and symbolic and metaphorical means of expression in the poet’s lyrical works. Particular attention is paid to revealing the thematic and artistic coherence of Usmon Azim’s creative legacy through the classification of his poetic works, as well as identifying the features that define his individual poetic style.

**Keywords:** Usmon Azim, poetic works, lyrics, classification, poetic thinking, artistic image, system of imagery, symbol, poetic style, artistic interpretation.

DOI: https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i21/n08

“Kuz” yirik she’riy to‘plam bo‘lib, o‘zida shoirning to‘rt yuzga yaqin (381ta) sara she’rlarini jam qilgan. Ta’kidlash kerakki, to‘plamdagi she’rlar Usmon Azim ijodining o‘ziga xos o‘suvchanlgini ko‘rsatuvchi yangicha turkumlanishga ega. Xususan, majmuadagi “bog‘lardan kelgan she’rlar” deb nomlangan “Ikkinchi daftar”ning o‘zi to‘rt fasl nomi bilan ataluvchi to‘rt turkum (“Qishki bog‘dan kelgan she’rlar”, “Bahorgi bog‘dan kelgan she’rlar”, “Yozgi bogdan kelgan sherlar”, “Kuzgi bog‘dan kelgan she’rlar”) dan iborat. Ushbu turkumlanishning xosliklari to‘g‘risida “Ikkinchi daftar”da batafsil to‘xtalib o‘tamiz.Umuman, to‘plamning yetti daftari qaysidir jihatlari bilan umumiylikka va yana qaysidir jihatlari bilan xususiylikka ega.“Birinchi daftar (sevgi)”. Adabiyotning hamishalik, doimiy mavzulari mavjud. Ularning manguligi esa har uch zamonda birdek amal qilishi bilan belgilanadi.Bularning orasida eng nozigi – qildek nur

kabisi; eng go‘zali — jannatiy hur kabisi; eng yoqimlisi – rangolud bir gul kabisi; eng sokini — intihosiz Nil kabisi; eng suronlisi – yomg‘irli bir do‘l kabisi; bir qo‘li hijron va bir qo‘li visol bo‘lgan Sevgidir.Usmon Azim ishq sifatlarini yaxshi his qilgan holda yetti daftardan tashkil topgan “Kuz” to‘plamining birinchi daftarini “Sevgi” deb ataydi va shu mavzudagi she’rlar bilan to‘ldiradi.“Birinchi daftar”da yuzga yaqin (92 ta) she’rlar jamlangan bo‘lib, ular mavzu jihatidan umumlashsalar-da, har biri sevgidek keng qamrovli mavzuning ma’lum qirralarini ifodalashi, ohangi, qolaversa, ifoda yo‘sini, poetik xususiyatlari bilan alohidaliklarga ega.Shu zaylda banddan bandga, she’rdan she’rga lirik qahramon tasvirlashga, bayon qilishga uringan sevikli haqidagi tasavvurlar boyib, yanada yaxshiroq idroklana boradi. Shoir buni sezganday “Sen shunday go‘zalsan...” she’rida bir sevgining “portretini chizib beradi. E’tiborlisi, Usmon Azim o‘z she’rlarida kuylagan sevgining eng xarakterli xususiyatlari shu portretda umumlashma tarzda aksini topgan: [1; B.21.].

Sen shunday go‘zalsan, shu qadar nafis,
Sen shunday g‘ussali, shu qadar o‘ychan.
Sen shunday darddirsan — yo‘qotmoq xavfi –
Qalbimni o‘rtar-u tark etmas bir dam!

Sinchiklab qaralsa, misralar mazmunida g‘ussani, go‘zallikni, o‘ychanlikni, nafislikni yo‘qotib qo‘yishdan qo‘rqish dardi bor. Shoirning sevgi mavzusida bitilgan she’rlariga ana o‘sha dard nuqtayi nazaridan qaralsa, mazmun to‘g‘ri anglanishi mumkin. [2; B.24.].

“Kuz” to‘plamining lirik qahramoni sevgisi ham o‘ziga xos. Shaklan ko‘pgina she’rlar o‘tgan zamon, ba’zan esa o‘tgan zamonda boshlanib, ayni paytga qadar davom etgan oraliq zamon va yana bir qancha she’rlar borki, ular mantiqan kelasi zamonga oiddir. Ularning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki o‘tgan va oraliq zamonga oid bo‘lgan she’rlarning ko‘pchiligi alamga chulg‘angan, armonga qo‘l berib, qayg‘u bilan kuy chaladi. Masalan, “So‘zimiz mavjlanib...” deb boshlanuvchi she’rda lirik qahramon buni alohida ta’kidlab, shunday deydi:

Bilmadim, ne uchun oldi qasdiga-
Taqdir ko‘nglimizni tutmas dastida,
O‘tgan onlarimiz oyoq ostida –
Oh, o‘tar onimiz undan yomondir!

Va zamon nuqtayi nazaridan (shaklan) kelajakka tegishli bo‘lgan she’rlarida, asosan, umid, sevinch nafasi ufurib turadi. “Meni yetti do‘sting yomon ko‘radi...” she’rida lirik “men”:

Meni yetti do‘sting yomon ko‘radi –
G‘azabdan qaltirab qo‘llari tugun.
Haftalik umrimdan zindon quradi,
Meni yetti do‘sting yomon ko‘radi,
Ammo meni sevar sakkizinchi kun, - deydi.

Lekin bu bo‘linishni shaklan bo‘linish deb qaramoq lozim. Chunki shoir she’rlarining tub mazmunini ifoda etuvchi sevgi zamoniga ko‘ra har uch zamonga tegishli. U o‘tgan, ayni va kelasi zamonda ham mavjuddir. Shularga asoslangan holda sevgi mavzusida bitilgan Usmon Azim she’rlarini zamon xususiyati umumzamon deb belgilash to‘griroq bo‘ladi. [3; B.74.].

Sevar yorim, kuzgi anhor
Suvi monand tiniqdirsan.
Shamol kabi to‘zg‘indirsan,
Ko‘nglim kabi siniqdirsan.

Bahor kabi shamollisan,
Olovlisan saratonday.
Qismatimda faqat kuzsan –
So‘niqdirsan, so‘niqdirsan...
Oh, kichiksan - yomonlikdan,
Yaxshilikdan yirikdirsan.

Yuqoridagi parchani lirik qahramon seviklisining tasviri deyish mumkin.. “Birinchi Daftar” sahifalaridagi she’rlarni varaqlab, lirik qahramon intilayotgan, oshiqayotgan mahbubning insonlar orasida emasligiga, zamindan turib oh urayotgan oshiqqa hamdam emasligiga ishonch hosil qilasiz. Ammo u intilayotgan mahbub yo‘q ham emas, u hamisha bor, aytilganidek, oshiqning yonida emas. She’rlardagi “men” intilayotgan yor shu qadar pok, nafis, shu qadar go‘zal, shu qadar g‘ussali-yu shu qadar keng. Mahdudlikdan tashqaridaki, uning mavjudlik makoni zamin emas. U ”men” ning armoni, oshiqning orzusi, u majnunning hijroni, barcha ishq ahlining quyoshi. Shu jihatdan daftardagi ko‘pchilik she’rlar hijrondan suv ichgan daraxtning mevalari yanglig‘ o‘zini namoyon qiladi va shunga muvofiq anglanadi. Bu sevgi mavzusida tarannum etilgan she’rlarning eng xarakterli xususiyatlaridan biridir. Shuningdek, abadiy sevgi e’tirofi bobida ushbu she’rlarning yana bir o‘ziga xosligi bor: bu shoirdagi sevgi tadrijining muntazamligidir. Mana, shoir bu haqida nima deydi:

Sevgi bahorida
Gul kabi ochilding.
Sevgining yozida
Bog‘ bo‘lding ko‘rkam.
Sevgining kuzida
Sarg‘ayganing yo‘q.
Gap shundaki,
Sevgining yozida,
Kuzida,
Qishida,
Bahorida
Men xazon bo‘ldim.

Ha, bu abadiy sevgi tarannumi! Negaki, abadiy sevgigina umrning to‘rt faslida, bahorida gul kabi ochilib, yozida ko‘rkam bo‘lib, kuzida zavol bilmay yashay oladi. Bunday yuksak tuyg‘usini esa sevgi deb yongan, uning fasllarida xazon bo’lsa-da, bunga chin dildan rizolik bildiruvchi oshiqlargina dilidan o‘tkazishi, his qilmog‘i mumkin. Lirik qahramon o‘zining chin sevgisini kuylar ekan uni “tirikda-g‘amimsan, o‘lsam – armonim”, deydi.

Haqiqatan, lirik qahramon boshiga chin sevgini mangu savdo, qismat qilgan ham aslida bizdan farsahlarcha olisdagi, ammo qancha olis bo‘lsa, dilga shuncha yaqin bo‘lgan botiniy va abadiy ishq emasmi?! [4; B.54.].

Demak, “Birinchi daftar”dan o‘rin olgan sevgi mavzusidagi she’rlarni biz ko‘zimiz bilan ko‘radigan kundalik, ikki oshiqning vaqtinchalik intim kechinmalaridan yuksakroq va mazmun ko‘lami, mohiyat e’tibori bilan bir necha qatlam chuqurroq ekanligini his qilgan holda o‘qimog‘imiz lozim ekan. Shoir ijodini o‘qigan, o‘qiyotgan va o‘qimoqchi bo‘lganlar bu holatni his qilishiga ishonchimiz komil.

Seni kuylamoqqa “barmoq” soddadir,

“Aruz” ohangida o‘zga til yuqi.
Olifta “sarbast”ning siri yoddadir,
“Mansura” – nasrning adashgan yuki.
Yuragim sezmoqda – vaznlar o‘zga,
Ismingni so‘zlarkan yurak yorilar –
Umr bir tomchi yosh -urilar ko‘zga...
Shu vazn shashtida she’rga borilar.
"Ikkinchi daftar (Bog‘lardan kelgan she’rlar)”.

Demak, “Birinchi daftar”dan o‘rin olgan sevgi mavzusidagi she’rlarni biz ko‘zimiz bilan ko‘radigan kundalik, ikki oshiqning vaqtinchalik intim kechinmalaridan yuksakroq va mazmun ko‘lami, mohiyat e’tibori bilan bir necha qatlam chuqurroq ekanligini his qilgan holda o‘qimog‘imiz lozim ekan. Shoir ijodini o‘qigan, o‘qiyotgan va o‘qimoqchi bo‘lganlar bu holatni his qilishiga ishonchimiz komil.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Usmon Azim. Saylanma. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2025 y.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. — Toshkent: 2018 y.
3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. — Toshkent:
1. Akademnashr, 2010 y.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. — Toshkent: 2002 y
5. Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. — Toshkent:
6. O‘zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent: 2020 y

# YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G‘OYA VA YECHIMLAR

## XXI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, noyabr

**Mas’ul muharrir:** *F.T.Isanova*
**Texnik muharrir:** *N.Bahodirova*
**Diszayner:** *I.Abdihakimov*

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar.**
XXI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami.
2-jild, 21-son (12-noyabr, 2026-yil). – 134 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yaxatidan o‘tkazilgan.

**ISSN:** 3093-8791 (onlayn)

**Elektron nashr**: https://konferensiyalar.com

**Konferensiya tashkilotchisi:** “Scienceproblems Team” MChJ

**Konferensiya o‘tkazilgan sana:** 2026-yil, 9-noyabr.

**Barcha huquqlar himoyalangan.**
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.